EKOLOGIK BARQARORLIK TIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA INSON OMILI MUAMMOLARI

Muratova Dildora Abdumanapovna

Sarbon universiteti, “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi professor v.b

Falsafa fanlari doktori (DSc)

muratovadildora959@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ekologik barqarorlik tizimini shakllantirish jarayonida inson omilining o‘rni, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlarning kelib chiqish sabablari falsafiy-metodologik jihatdan tahlil qilingan. Muallif antik davr falsafasi, o‘rta asrlar monoteistik dunyoqarashi, Abu Nasr Forobiyning tabiat ilmi tasnifi hamda Yangi davr klassik ratsionalizmi misolida insonning tabiatga munosabatining evolyutsiyasini ochib bergan. Shuningdek, antropotsentrik yondashuvlar, ilmiy-texnik taraqqiyotning ekologik oqibatlari va zamonaviy ekologik tafakkurni shakllantirish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologik barqarorlik, inson omili, ekologik inqiroz, antropotsentrizm, klassik ratsionallik, Abu Nasr Forobiy, tabiat va jamiyat, barqaror rivojlanish.

ПРОБЛЕМЫ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ФОРМИРОВАНИИ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ

Аннотация: В статье с научно-философской и методологической точек зрения анализируются роль человеческого фактора в формировании системы экологической устойчивости и причины возникновения противоречий между природой и обществом. На примере философии античности, средневекового монотеистического мировоззрения, классификации науки о природе Абу Насра аль-Фараби и классического рационализма Нового времени автор раскрывает эволюцию отношения человека к природе. Также обоснованы антропоцентрические подходы, экологические последствия научно-технического прогресса и необходимость формирования современного экологического мышления.

Ключевые слова: Экологическая устойчивость, человеческий фактор, экологический кризис, антропоцентризм, классическая рациональность, Абу Наср аль-Фараби, природа и общество, устойчивое развитие.

PROBLEMS OF THE HUMAN FACTOR IN FORMING THE SYSTEM OF ECOLOGICAL SUSTAINABILITY

Annotation: The article provides a philosophical and methodological analysis of the human factor’s role in establishing an environmental sustainability system, as well as the root causes of conflicts between nature and society. Through the examples of ancient philosophy, medieval monotheistic worldview, Abu Nasr Al-Farabi’s classification of natural sciences, and the classical rationalism of the Modern era, the author reveals the evolution of human attitudes toward nature. Furthermore, the paper substantiates anthropocentric approaches, the ecological consequences of scientific and technological progress, and the necessity of shaping modern ecological thinking.

Keywords: Ecological sustainability, human factor, ecological crisis, anthropocentrism, classical rationality, Abu Nasr Al-Farabi, nature and society, sustainable development.

Kirish

Hozirgi zamonda global ekologik barqarorlik masalasi dunyo miqyosida dolzarb muammoga aylandi. Inson faoliyati oqibatida tabiiy muhit o‘zgarib, resurslar tugab bormoqda, bu esa butun bashariyatning istiqboliga xavf tug‘dirmoqda. Bu holat asta-sekin rivojlanib, so‘nggi o‘n yilliklarda yanada jadallashdi. Odamzot taraqqiyot sari intilib, tabiatdan foydalanar ekan, uning qonuniyatlarini yetarlicha inobatga olmadi, natijada bugungi kundagi ekologik inqirozga duch keldik.

Tabiiy muhitning izdan chiqishi - jumladan, ob-havo o‘zgarishi, atmosfera va suv havzalarining ifloslanishi, o‘rmonzorlarning qirqilishi, hayvonot va o‘simlik turlarining kamayishi - iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu muammolar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir-birini kuchaytirmoqda. Misol uchun, iqlim o‘zgarishi dehqonchilikka zarar yetkazmoqda, bu esa oziq-ovqat xavfsizligini

tahdid ostiga qo‘yadi. Natijada, zanjirli reaksiya - oziq-ovqat tanqisligi yuzaga kelib, u ijtimoiy va siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Shunday qilib, insoniyat o‘zi yaratgan muammolarni o‘zi bartaraf etishi, o‘z ekologik barqarorlik ta’minlashi zarur bo‘lib qolmoqda. Bu oson vazifa emas, chunki u xalqaro hamkorlik va har bir kishining ongli ishtirokini talab etadi. Ekologik muammolarni hal qilish uchun faqat texnik yechimlarning o‘zi yetarli emas, odamlarning turmush tarzi va iste’mol odatlarini ham o‘zgartirish lozim.

Asosiy qism

Inson va atrof-muhit o‘rtasidagi qarama-qarshilik tabiatni ilmiy bilishning boshlanishiga sabab bo‘ldi. Bu qarama-qarshilik insoniyat tarixida muhim burilish nuqtasi bo‘lib, tabiatni obyektiv o‘rganishga yo‘l ochdi. Olimlarning fikricha “inson tabiatdan o‘zini ajratib olish orqali uni obyektlashtiradi va shu tariqa tabiatni ilmiy o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldi”[1].

Ilmiy dunyoqarash klassik ratsionallikning tug‘ilishini anglatdi. “Klassik ratsionallik ilmiy bilishning obyektga yo‘naltirilganligi va bilimning obyektivligini ta’minlashga qaratilgan metodologik tamoyillarni o‘z ichiga oladi”[2]. Bu jarayon uzoq vaqt davomida shakllanib, insonning tabiatga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirdi. Ilmiy bilimning obyektivligi va universalligi tan olina boshladi, bu esa ilm-fanning keyingi rivojlanishi uchun poydevor bo‘ldi.

Abu Nasr Farobiy ilmlarni nasnif qilar ekan, tabiat ilmini alohida ajratib ko‘rsatadi: “Tabiat ilmi tabiatdagi jismlarni (ajsom-i tabiya) va borlikni (kavn) va bu jismlarda bo‘lgan orazlarni tadqiq qilali. Bu ilm borliqdagi mavjudotlarning qaysi jinslaridan, kaysi narsalar sababli va kaysi narsalar uchun borligini bildiradi. Jismlar yo sun’iy yoki tabiiy bo‘ladi. Sun’iy bulgan jismlar jom, kilich, kiyim kabilardir. Sun’iy jismlar san’at (xunar) va inson irodasi orqali bulgan narsadir. Tabiiy jismlar esa osmon, Yer, bu ikkalasining orasidagi borliqlar, o‘simliklar va xayvonlar kabi na sun’iy va na inson irodasi orqali bo‘lmagan

[1] Stepin V.S. Filosofiya nauki. Obщiye problemы. - M.: Gardariki, 2006. S.55
[2] Lektorskiy V.A. Epistemologiya klassicheskaya i neklassicheskaya. - M.: Editorial URSS, 2001.

bizdan tashkaridagi olam mavjudotlaridir. Tabiiy jismlar sun’iy jismlarni yasash uchun modda bulib xizmat qiladi”[3].

Farobiyning “Tabiiy jismlar sun’iy jismlarni yasash uchun modda bo‘lib xizmat qiladi” degan fikri zamonaviy ekologiyaning eng dolzarb va muhim muammolaridan biri - tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish masalasi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu chuqur falsafiy qarash tabiatni inson ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladigan asosiy manba sifatida ko‘rish g‘oyasini aks ettiradi. Bu nuqtayi nazar uzoq vaqt davomida jamiyatning tabiatga bo‘lgan munosabatini belgilab kelgan. Ammo bugungi kunda, global ekologik muammolar va tabiiy resurslarning cheklanganligi tufayli, bu an’anaviy yondashuv barqaror rivojlanish tamoyillari nuqtayi nazaridan jiddiy ravishda qayta ko‘rib chiqilmoqda. Zamonaviy ekologik tafakkur tabiatni nafaqat resurs manbai, balki o‘zining mustaqil qiymatiga ega bo‘lgan murakkab tizim sifatida qarashga undamoqda.

Dastlab qaraganda, Farobiyning tasnifi insonni tabiatdan ajratib, uni alohida mavjudot sifatida ko‘rsatayotgandek tuyulishi mumkin. Biroq, chuqurroq tahlil qilinsa, Farobiy aslida insonni tabiatning ajralmas bir qismi sifatida qaraganini anglash mumkin. U insonning tabiat bilan uzviy bog‘liqligini tan oladi, ammo shu bilan birga insonning o‘ziga xos xususiyatlari va qobiliyatlarini ham ta’kidlaydi. Bu nozik va muvozanatli qarash zamonaviy ekologik tafakkurda inson va tabiat o‘rtasidagi murakkab, ko‘p qirrali munosabatlarni tushunish va tahlil qilish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv insonning tabiatga ta’sirini va shu bilan birga tabiatning inson hayotidagi o‘rnini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Farobiyning tabiatni ilmiy o‘rganishga bo‘lgan da’vati zamonaviy ekologiyaning ilmiy metodologiyasiga mustahkam poydevor yaratgan. Uning tabiatni tizimli va obyektiv ravishda o‘rganish g‘oyasi ekologiya fanining shakllanishida muhim rol o‘ynagan.

[3] Abu Nasr Forobiy. Ilmlarning tasnifi. (Ixso-al-Ulum)/ Tarjimon Nazarbek Raxim.- Toshkent. “Navro‘z” nashriyoti, 2016-y. 50 b.

Antik davrda tabiat tadqiqot obyektiga aylanishi bilan koinot va butun dunyoning “antropomorfizatsiyasi”[4] va “etizatsiyasi”[5] qadimgi yunon mifologiyasi va falsafasida o‘z aksini topdi. Butun dunyo yagona borliq sifatida namoyon bo‘lib mikrokosm (alohida inson) makrokosm (koinot) bilan uyg‘unlikda rivojlanishi haqidagi qarashlar ilgari surildi. Inson (mikrokosm) va koinot (makrokosm) o‘rtasidagi uyg‘unlik g‘oyasi ko‘plab falsafiy an’analarda muhim o‘rin tutadi. Bu qarash inson va tabiat o‘rtasidagi chuqur aloqadorlikni ta’kidlaydi. Har bir inson o‘zida butun koinotning aks-sadosini topadi, shu bilan birga insoniyat rivojlanishi koinot taraqqiyoti bilan hamohang kechadi. Bu tushuncha insonning o‘z-o‘zini anglashi va dunyodagi o‘rnini tushunib yetishida muhim ahamiyat kasb etadi.

“Inson - barcha narsalarning o‘lchovi” degan mashhur g‘oyani ilgari surgan faylasuf Protagor o‘z davrida insonni barcha mavjudotning asosi sifatida ko‘rgan. U insonni dunyoni anglash va baholashning asosiy mezoni deb hisoblagan. Biroq, keyinchalik Demokritning falsafiy qarashlarida tabiat qonunlari, ya’ni umumiy zaruriyat bo‘lgan Katta Diakosmos va insonlar tomonidan yaratilgan ijtimoiy qonunlar - Kichik Diakosmos[6] o‘rtasidagi muhim farqlar aniq ko‘rsatib berilgan.

Qadimgi falsafa tadqiqotchilari Aflotunning asarlarida insonning jismoniy tabiati haqidagi chuqur mulohazalarni uchratadilar. Bu fikrlarga ko‘ra, insonning moddiy tanasi ilohiy yaratuvchi - Demiurg tomonidan ko‘zga ko‘rinmaydigan materiyadan shakllantirilgan bo‘lib, u keyinchalik ko‘rinadigan shakl-shamoyil kasb etadi. Bu jarayon Aflotunning falsafiy tizimida muhim o‘rin egallaydi va inson mohiyatini tushunishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Aflotun o‘z falsafasida epikurchilarning qarashlariga qarama-qarshi pozitsiyani egallaydi. Epikurchilar “ezgulik”ka erishish yo‘li sifatida hissiy lazzatlarga to‘liq berilishni targ‘ib qilgan bo‘lsa, Aflotun butunlay boshqa yo‘lni taklif etadi - uning fikricha, haqiqiy ezgulikka erishish faqatgina ruhning maxsus takomillashuv yo‘lini bosib o‘tishi orqali

[4] Yunoncha “anthropos” (inson) va “morphe” (shakl) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “inson shaklini berish” ma’nosini anglatadi. Antropomorfizatsiya - bu inson xususiyatlarini, his-tuyg‘ularini, fikrlash qobiliyatlarini yoki xatti-harakatlarini hayvonlar, o‘simliklar, tabiat hodisalari, predmetlar yoki mavhum tushunchalarga nisbatan qo‘llash.

[5] “Etizatsiya” so‘zi “etika” (axloq) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “-izatsiya” qo‘shimchasi jarayonni anglatadi. Ya’ni, “axloqiylashtirish” yoki “axloqiy tamoyillarni joriy etish” ma’nosini beradi. Etizatsiya - bu axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni jamiyat hayotining turli jabhalariga, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, fan, texnologiya va kundalik hayotga joriy etish jarayoni.

[6] Boguslavskaya S.M. Eticheskaya osnova vzaimodeystviya cheloveka s biosferoy i sovershenstvovaniye filosofskogo obrazovaniya [Elektronnыy resurs]. - onlayn jurnal Credo new № 2,2001.

amalga oshadi. Bu yo‘l moddiy dunyodagi narsalarning yaxlitligini anglashdan boshlanib, “g‘oyalar dunyosi” haqidagi ilohiy bilimlarni “eslash”gacha bo‘lgan murakkab jarayonni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, Aflotunning falsafiy izlanishlarida asosiy e’tibor insonni o‘rab turgan tashqi muhit va moddiy borliqqa emas, balki aql bilan idrok etiladigan oliy haqiqatlarga qaratilgan. Bu haqiqatlar inson ongi orqali anglanib, uning ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi va oliy darajadagi bilimlarga yetaklaydi. Faylasufning fikricha, aynan mana shu yo‘l orqaligina inson o‘zining haqiqiy mohiyatini anglab yetishi mumkin.

Ayrim olimlar antropotsentrik yondashuvning[7] ildizlarini qadimgi yunon falsafasida ko‘radilar. Masalan, Suqrot va Aflotun asarlaridagi antropotsentrizmning dastlabki belgilari haqida chuqur tadqiqot olib borgan olimlardan biri Martin J. Stoundir. U o‘zining “Aflotun, atrof-muhit barqarorligi va ijtimoiy adolat” nomli keng qamrovli maqolasida uning tabiatga bo‘lgan munosabatlarini batafsil va ko‘p qirrali tahlil qiladi. Stoun Aflotunning inson va tabiat o‘rtasidagi murakkab aloqalarga oid falsafiy qarashlarini sinchkovlik bilan o‘rganib, ularning atrof-muhit barqarorligi va ijtimoiy adolatga ko‘rsatadigan uzoq muddatli ta’sirini chuqur tadqiq etadi. Bu orqali u qadimgi yunon falsafasining zamonaviy ekologik muammolarga bo‘lgan aloqadorligini yoritishga harakat qiladi[8].

Aristu falsafasidagi “ekologik” tarkibiy qism haqida olimlar va mutaxassislar o‘rtasida qizg‘in bahs-munozaralar olib borilmoqda. Bu bahslar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, zamonaviy ekologik muammolarni hal etishda muhim o‘rin tutadi[9].

Ekologlar harakati vakillari Arastuning hayvonlar faqatgina inson ehtiyojlarini qondirish uchun mavjud degan qarashiga qat’iy qarshi chiqadilar. Ularning fikricha, bunday yondashuv tabiatga nisbatan iste’molchilik munosabatini shakllantiradi va ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi[10]. Boshqa tadqiqotchilar esa Arastuning

[7] Antropotsentrik yondashuv - bu insonni tabiatdan ustun qo‘yuvchi va tabiatni faqat inson manfaatlari nuqtayi nazaridan baholovchi falsafiy qarash, paradigma. Bu yondashuv ekologik falsafada muhim o‘rin tutadi va ko‘pincha ekologik muammolarning asosiy sabablaridan biri sifatida ko‘riladi.

[8] Stone M. Plato, Environmental Sustainability, and Social Justice // Athens Journal of Humanities & Arts. 2018 5(1). P.53-68.

[9] Anwarullah Bhuiyan. Is Aristotle’s Philosophy Anthropocentric? A Biocentric Defense of the Aristotelian Philosophy of Nature.// Biocosmology – Neo-Aristotelism. Vol. 5, No. 2, Spring 2015.-P.197-212

[10] Dylan B. van der Schyff. The Ethical Experience of Nature: Aristotle and the Roots of Ecological Phenom enology// Phenomenology & Practice, Volume 4 (2010), No. 1, pp. 97-121. https://www.researchgate.net/publication/266558266

“qadriyatlar nazariyasi”ga tayanib, uning qarashlarini himoya qiladilar va boshqacha talqin etadilar.

Fransuz faylasufi Syuzann Foste Aristuning “ratsiotsentrizmi” haqida chuqur mulohaza yuritib, bu masalaga alohida e’tibor qaratadi. U ta’kidlaydiki, keyingi davr faylasuflari Aristuning “sabab”ga bergan ustunligi “inson foydasi” tushunchasini noto‘g‘ri talqin etishga olib kelganini qayd etishgan. Fostening fikricha, “sabab” ning bunday haddan tashqari baholanishi oqibatida noratsional mavjudotlarning qadr-qimmati pasaytiriladi va bu holat olimning “qadriyatlar nazariyasi”ni egotsentrik xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi[11].

Bundan kelib chiqadiki, Arastu falsafasi insonning “sifatli hayot” konsepsiyasini rivojlantirish uchun juda qulay nazariy asos bo‘la oladi. Biroq, bu falsafa har qanday tirik mavjudotni, ya’ni “boshqa”ni o‘z-o‘zicha qadrli deb hisoblash uchun yetarli asos bo‘la olmaydi. Bu esa zamonaviy ekologik tafakkur talablariga to‘liq javob bermaydi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, qadriyatlar nazariyasi maxsus vaziyatlarda yuzaga keladigan axloqiy masalalarni hal qilish uchun aniq qoidalar va tartiblarni ta’minlab bera olmaydi. Atrof-muhit himoyachilari esa aynan shunday aniq ko‘rsatmalarga, bir-biriga zid bo‘lgan qadriyatlardan qaysi biri ustuvor ekanligini aniqlash uchun amaliy me’yorlarga ehtiyoj sezadilar. Shu nuqtayi nazardan, qadriyatlar nazariyasi amaliy harakat uchun to‘laqonli qo‘llanma bo‘la olmaydi. Bu nazariya yovvoyi tabiat va atrof-muhitning inson uchun qadrli ekanligini tasdiqlovchi zamonaviy ekologik qarashlarga qarama-qarshi turadi. Bu esa uni zamonaviy ekologik muammolarni hal etishda qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi.

Insonni atrof-muhitdan ayro tasavvur qilishdagi eng muhim va asosiy bosqich monoteizmning, ya’ni yakka xudolikning paydo bo‘lishi va asta-sekin keng miqyosda tarqalishi bilan bog‘liq. Bu jarayon insoniyat tarixida tub burilish yasagan voqealardan biri hisoblanadi. G‘arb madaniyatiga nasroniylikning faol va izchil joriy etilishi, xristian dunyo qarashi to‘liq ustunlik qilgan o‘rta asr ong tipining ming yildan ortiq davom etgan

[11] Susanne E. Foster. Aristotle and the environment//Environmental Ethics 24 (2002/4):P.409-428

hukmronligiga sabab bo‘ldi. Bu davr mobaynida odamlarning tafakkuri va dunyoqarashi to‘liq diniy e’tiqodlar asosida shakllandi.

Xudo tomonidan jon ato etilgan insonning eng asosiy va birlamchi vazifasi, tegishlicha, Yaratganga sodiqona xizmat qilish edi, U yaratgan moddiy dunyoga emas. Bu qarash insoniyat ongida chuqur ildiz otdi va kundalik hayotning barcha jabhalariga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Olimlarning fikricha “o‘rta asrlarda tabiiy-ilmiy bilimlarga nisbatan salbiy munosabat, shuningdek, jamiyat va inson haqidagi barcha bilimlar tizimining faqatgina diniy qoidalardan kelib chiqishi o‘tgan davrning ko‘plab qimmatli ilmiy yutuqlarining dogmatizatsiyasiga va tabiiy fanlarning jiddiy inqiroziga olib keldi. Bu holat ilm-fan taraqqiyotini ancha vaqtga to‘xtatib qo‘ydi”[12].

Biroq, o‘sha davrning diniy mutafakkirlari ma’lum bir ekologik dunyo tasvirini o‘zlaricha shakllantirishga harakat qildilar va bu borada turli nazariyalarni ilgari surdilar – “mashhur katolik faylasufi Akvinalik Foma o‘zining asarlarida o‘simliklar va hayvonlar o‘zlari uchun emas, balki faqatgina inson uchun mavjud deb qat’iy e’lon qildi. U hayvonlar aqlsiz maxluqlar bo‘lgani uchun, ularga nisbatan rahm-shafqat qilish noto‘g‘ri va nojoiz deb hisobladi. Uning bu kabi inson markazli, ya’ni antropotsentrik g‘oyalari faqatgina XX asrga kelibgina jiddiy shubha ostiga olina boshladi va tanqidiy muhokama qilindi” [13].

Bunday qarashlar va fikrlar zamonaviy ekologik muammolarning kelib chiqishida diniy omilning ustunligi haqidagi tasavvurlarning keng tarqalishi va rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ammo bu qarash, yuqorida ta’kidlanganidek, masalaning mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydigan asossiz soddalashtirishdir. Chunki ekologik muammolarning ildizi ancha chuqur va murakkab bo‘lib, ularni faqat bitta omil bilan izohlash mumkin emas.

Jamiyatning tabiatdan uzoqlashishining keyingi muhim bosqichi fanlarning jadal rivojlanishi va Yangi davr falsafasining chuqur ratsionalistik ta’limotlari, ya’ni klassik ratsionallik idealining keng miqyosda gullab-yashnashi bilan bevosita bog‘liq. Bu davrda ilmiy bilimlar tizimi tubdan o‘zgarib, tabiatni o‘rganishga bo‘lgan yondashuv ham yangicha

[12] Ivanov V.G. Istoriya etiki srednix vekov. - SPb.: Izdatelstvo “Lan”, 2002. - S. 8
[13] Boreyko V.Ye. Prorыv v ekologicheskuyu etiku. - Kiyev: Kiyevskiy ekologo-kulturnыy sentr, 1999 - S. 6

tus oldi. Ayniqsa, tabiiy fanlarning rivojlanishi insonning tabiatga bo‘lgan munosabatini sezilarli darajada o‘zgartirdi.

Inson endi faqatgina biluvchi, kuzatuvchi subyekt bo‘libgina qolmay, balki atrof-muhitni va butun dunyoni o‘z talablari va ehtiyojlariga muvofiq faol o‘zgartirishga qodir bo‘lgan olimga aylanadi. Bu esa insoniyatga tabiat ustidan yanada ko‘proq nazorat o‘rnatish imkonini berdi. Natijada, odamzot tabiatni nafaqat o‘rganadigan, balki uni o‘z manfaatlari yo‘lida o‘zgartira oladigan kuchli mavjudot sifatida o‘zini anglay boshladi. Bu yangi qarash ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Inson o‘zini bu faoliyat uchun yetarli darajada malaka va bilimga ega deb hisoblab, o‘z “uyi”, ya’ni atrof-muhitni obodonlashtirish va qayta qurishni mustaqil ravishda hal qila boshladi. Bu jarayon insonning tabiatga bo‘lgan munosabatida tub burilish yasadi va uning tabiat ustidan hukmronlik qilish istagini yanada kuchaytirdi.

“Falsafiy ensiklopedik lug‘at”da ko‘rsatilganidek, “o‘rta asr falsafasi va diniy dogmatizmga qarama-qarshi o‘laroq, klassik ratsionalizm buyuk mutafakkirlar Rene Dekart, Benedikt Spinoza, Gotfrid Leybnis timsolida butun dunyoni qamrab oluvchi cheksiz sabab-oqibat zanjiri - tabiiy tartib g‘oyasidan kelib chiqqan” [14]. Bu faylasuflarning har biri o‘z asarlarida tabiat qonunlarini ratsional anglash va tushuntirish imkoniyatlarini asoslashga harakat qildilar.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda ekologik barqarorlik tizimini shakllantirishda inson omilining o‘rni hamda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning tarixiy-falsafiy evolyutsiyasi chuqur tahlil qilingan bo‘lib, quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Inson va tabiat ziddiyatining kelib chiqishi: Insonning tabiatdan o‘zini ongli ravishda ajratib olishi va uni obyekt sifatida idrok etishi antik davr falsafasidan boshlangan bo‘lib, bu jarayon insoniyatning tabiatni ilmiy o‘rganishi uchun yo‘l ochdi. Shu bilan birga, bu holat vaqt o‘tishi bilan tabiatga nisbatan iste’molchilik va antropotsentrik yondashuvlarning shakllanishiga zamin yaratdi.

[14] Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar / Gl. redaksiya: L ,F. Ilich yev, P.N.Fedoseev, S.M.Kovalev, V.G.Panov. - M.: Sov.Ensnklopediya, 1983. - 840 s.

Sharq va G‘arb falsafiy merosining o‘rni: Abu Nasr Farobiyning ilmlar tasnifida tabiat ilmini alohida ilmiy yo‘nalish sifatida talqin etishi va tabiiy jismlarning inson faoliyati uchun moddiy asos bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatishi zamonaviy ekologik tafakkur va resurslardan oqilona foydalanish g‘oyalarining muhim falsafiy poydevori hisoblanadi. O‘rta asrlar monoteistik dunyoqarashi va Yangi davr klassik ratsionalizmi esa insonning tabiat ustidan hukmronlik qilish istagini yanada kuchaytirdi.

Ekologik inqiroz va zamonaviy tafakkur zarurati: Ilmiy-texnik taraqqiyot va klassik ratsionallik g‘oyalari natijasida yuzaga kelgan bugungi global ekologik inqirozlar inson omilining salbiy oqibatlarini yaqqol ko‘rsatmoqda. Bu esa faqatgina texnik yechimlar bilan cheklanib qolmay, balki insonning tabiatga bo‘lgan dunyoqarashini, axloqiy tamoyillarini va ekologik ongini tubdan o‘zgartirishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik barqarorlikni ta’minlash va mavjud global ekologik tahdidlarni bartaraf etish insonning tabiat bilan o‘zaro munosabatlarini yangi — uyg‘unlik va barqaror rivojlanish paradigmasi asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Stepin V.S. Filosofiya nauki. Obщiye problemы. - M.: Gardariki, 2006. S.55
2. Lektorskiy V.A. Epistemologiya klassicheskaya i neklassicheskaya. - M.: Editorial URSS, 2001.
3. Abu Nasr Forobiy. Ilmlarning tasnifi. (Ixso-al-Ulum)/ Tarjimon Nazarbek Raxim.- Toshkent. “Navro‘z” nashriyoti, 2016-y. 50 b.
4. Boguslavskaya S.M. Eticheskaya osnova vzaimodeystviya cheloveka s biosferoy i sovershenstvovaniye filosofskogo obrazovaniya [Elektronnыy resurs]. - onlayn jurnal Credo new № 2,2001.
5. Stone M. Plato, Environmental Sustainability, and Social Justice. *Athens Journal of Humanities & Arts*. 2018 5(1). P.53-68.
6. Anwarullah Bhuiyan. Is Aristotle’s Philosophy Anthropocentric? A Biocentric Defense of the Aristotelian Philosophy of Nature. *Biocosmology – Neo-Aristotelism*. Vol. 5, No. 2, Spring 2015.-P.197-212
7. Dylan B. van der Schyff. The Ethical Experience of Nature: Aristotle and the Roots of Ecological Phenom enology. *Phenomenology & Practice,* Volume 4 (2010), No. 1, pp. 97-121.
8. Susanne E. Foster. Aristotle and the environment. *Environmental Ethics* 24 (2002/4): P.409-428

9. Ivanov V.G. Istoriya etiki srednix vekov. - SPb.: Izdatelstvo “Lan”, 2002. - S. 8

10. Boreyko V.Ye. Prorыv v ekologicheskuyu etiku. - Kiyev: Kiyevskiy ekologo-kulturnыy sentr, 1999 - S. 6

11. Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar / Gl. redaksiya: L,F. Ilich yev, P.N.Fedoseev, S.M.Kovalev, V.G.Panov. - M.: Sov.Ensnklopediya, 1983. - 840 s.